

SHUKUR XOLMIRZAYEVNING “O‘ZBEK XARAKTERI” HIKOYASIDA XRONOTOP MASALASI

Hoshimjon Ahmedov

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti o‘qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi

ahmedov_60@list.ru

Annotation.

This article analyzes the story "Uzbek character" by People's Writer of Uzbekistan Shukur Kholmiraev. Based on the text of the story, the problem of "chronotope" is studied. Based on this, the ideas and conclusions put forward by the author are given. Certain conclusions are drawn about the artistic features of the story.

Keywords:

Uzbek literature, Shukur Kholmiraev, “Uzbek character” story, chronotope.

Masalaning qo‘yilishi. Barcha badiiy asarlarda qahramon va uning harakat qiladigan makoni va zamoni muhim ahamiyatga ega. Jahon adabiyotshunosligida xronotop tushunchasining asarda tutgan o‘rni haqida ko‘p yozilgan. Chunki har qanday asar muayyan zamon va makonda ro‘y berar ekan, kitobxonga bamisoli tarixiy bir voqeani yoxud muayyan zamon va makonda yashagan insonlarning ma‘naviy-axloqiy xususiyatlari, davlat tuzumi, o‘zaro munosabatlardagi muhim jihatlar haqida ko‘p ma‘lumot bera oladi. Shunday ekan, badiiy asarda xronotop ko‘p jihatdan asar tuzilishini ta‘minlovchi muhim unsur hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda XX asr oxiri va XXI asr boshlari o‘zbek hikoyachiligida Shukur Xolmirzayev asarlarining o‘rni katta. Biz tahlil uchun yozuvchining bitta hikoyasi – “O‘zbek xarakteri”ni tanlab oldik. “Shukur Xolmirzayevning adabiyotimizda qo‘zg‘almas o‘rni bor. Uning asarlari zimnidagi teran hayotiy va badiiy-estetik ma‘no, tasvir mahorati sirlari adabiyotshunoslar tomonidan ko‘proq tadqiq etilmog‘i lozim” [1. Qozoqboy Yo‘ldosh. Ochqich so‘z. 377-bet].

Muammoning tadqiqi. XX asr oxirlarida o‘zbek adabiyotida katta sifat o‘zgarishlari ro‘y berdi. Bu asosan sobiq SSSRning parchalanishi bilan bog‘liq edi. Bu jarayon ko‘plab badiiy asarlarda turlicha shakllarda gavalantirildi. Jumladan Shukur Xolmirzayevning “O‘zbek xarakteri” hikoyasi ham o‘z davrida katta dovruc qozondi. [2. Shukur Xolmirzayev. Saylanma. III jildlik. II jild. 116-134-betlar].

Dastlab, “xronotop” so‘ziga izoh bersak. U adabiyotshunoslikka rus olimi Baxtin tomonidan kiritilgan bo‘lib [3. Бахтин М. Формы времени и хронотопа в романе. “Вопросы литературы и эстетики” 1975, стр.234-407], badiiy asardagi makon va zamoni anglatadi. Buni o‘zbek olimi D. Quronov quyidagicha bayon etadi: “Yozuvchi yuz berishi jihatidan bir paytga to‘g‘ri keladigan voqealarni navbati bilan tasvirlashi ham mumkinki, bu epik asarlarda “badiiy vaqt” imkoniyatlarining ancha kengligini ko‘rsatadi. Avvalo shuki, “syujet vaqti” asarning asosiy syujet chizig‘idagi voqealarning yuz berish vaqti bilan belgilanadi”[4. D. Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. 191-bet].

Hikoya shunday boshlanadi: “Men bir voqeani aytib beray. Ikkinchi kursda paxtaga bordik. O‘sha Bo‘ka rayoniga...” (“O‘zbek xarakteri”, 116-bet). Ma‘lumki, paxta terimi kuzda bo‘ladi. Cobiq ittifoq tuzumida yashagan bari o‘zbeklar biladiki, uch oy davom etadigan bu kampaniyaga 7 yoshdan 70 yoshgacha aholi jalb qilinar edi. Bu haqda O‘zbekiston shoiri Muhammad Yusuf ham bir she‘rida yozgan edi – “Paxtaga chiqar 1-sinf bolalari”[5.

Muhammad Yusuf. Saylanma, 137-bet]. Yozuvchining tarjimai holiga e'tibor bersak, u 1958-1961-yillar Toshkent davlat universitetida tahsil olgan. Demak hikoya – voqeiy. Keyin vaqti-vaqti bilan o'sha zamon hayoti va siyosatiga bog'liq chizgilar qahramon (Ergash) faoliyati bilan bog'liq holda yoritib boriladi. Jumladan: "... ariqchada tiniq zilol suv oqyapti... O! O'sha paytlar Bo'kadayam suvlar toza bo'lgich edi. Ximikatlar ham kam sepilardi nazarimda. Lekin men bu tomonlariga e'tibor qilmaganman... Chunki o'zimiz tarafdoyam ximikat, suv notoza, ul-bul degan gaplar bo'lardi" (O'sha manba, 119-bet). Bu kichik tasvirda adib XX asrning 60-yillaridayoq paxta siyosati orqasidan mamlakat ekologiyasining buzilib ketganiga ishora qilayapti. Bu muammo (ekologiya va salomatlik) uning bir necha hikoyalarida aks etgan, jumladan "Xumor" hikoyasini eslash kifoya. (Shukur Xolmirzayev. Saylanma. III jildlik. II jild. 87-95-betlar). "O'zbek xarakteri" hikoyasidagi tasvirlangan voqealar Bo'kadagi bir qishloqda bo'lib o'tgan. U shunday tasvirlangan: "Shunda qaragam, haligi kulba... odam yashaydigan uycha ekan. Men bilmadim, bostirma deb o'ylabmidim, hayron qoldim. Kichkina derazasi bor..." (118-bet) Botir cho'pon, uning ayoli va o'g'ilchasi – hikoyada sodda samimiy va ishonuvchan kishilar sifatida tasvir etiladi. Xullas, shu kichik lavhada ham muallif oddiy insonlarning kamtarona hayot tarzini ta'sirli usulda ifodalagan. Yana hikoyada aytiladi: "Bilasizmi, ey qadrdon, ko'zimiz ochiq bo'lgani bilan ojiz ekanmizda: siz ham shunday g'arib kulbalarda yashayotgan dehqonni, paxtakorni ko'rgansiz. Albatta... Lekin buni tan olmas edik-a? Qanday ablah ekanmiz!" (125-bet). Endi bu lavha orqali malakatda g'aribgina yashayotgan odamlar – mehnatkash, sabrli odamlar o'sha zamonlarda (sovet tuzumi davrida) ko'p bo'lganligi ayonlashadi. Ikkinchidan har bir voqelikka muallif munosabati ham qistirib ketilgan. Ayniqsa, ziyoli bo'laturib, qashhsoq hayotga befarq va loqayd munosabatni qoralab ketadi: "Qanday ablah ekanmiz!". Bundan tashqari yozuvchi oddiy mehnat kishilarining mehmondo'st, kamtar, kamgap, samimiyligini mahorat bilan ochib beradi. "Men shu paytga qadar o'zbek adabiyotida bu xil uslubda bitilgan nasriy asarni o'qimagan edim. Muallif hikoya qilmaydi, go'yo yozmaydi, balki voqea-hodisalar, odamlar qiyofasi, gap-so'zlari, ruhiyatidagi jarayonlar manzarasini xuddi rassomdek chizib ko'rsatadi; hodisalarga aralshmaydi, baho berishga shoshilmaydi, chetdan turib tasvirlaydi..."[6. Umarali Normatov. Ijod sehri. 320-bet]

Xulosa qilib aytganda, Shukur Xolmirzayev o'z hikoyasida bir necha mavzu va g'oyalarni ilgari suradi.

1. "O'zbek xarakteri" hikoyasida millatning o'ziga xos milliy qiyofasi bir necha obrazlar orqali muvaffaqiyatli gavdalantirilgan. Hikoyada Botir cho'pon va uning oilasi orqali milliy o'ziga xos qiyofalar ta'sirli va samimiy tasvirlangan.
2. Hikoyalardagi chizgilar orqali aholisi aksariyat qishloq kishilari bo'lgan mamlakat hayotining kichik bir manzarasi yaratilgan.
3. Muallif asari orqali XX asrning 60-yillaridayoq sobiq tuzum asoratlarini bavo-sita tasvir eta olgan.
4. Hikoyada xronotop – makon va zamon syujet voqealari bayoni bilan mohirona uyg'unlikda va aniq tasvirlangan.

Adibning bu hikoyasi hamda uning o'zbek adabiyotidagi o'rni haqida ko'plab e'tiroflar bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Қозокбой Йўлдош. Очкич сўз. Т.: Тафаккур. 2019. – 688 б.
2. Холмирзаев Ш. Сайланма. Уч жилдлик. II жилд. Т.: "ШАРҚ". 2005. – 464 б.
3. Бахтин М. Формы времени и хронотопа в романе. "Вопросы литературы и эстетики". М.: "Художественная литература". 1975, стр. 408.
4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Т.: Akademnashr. 2018. – 480 b.

5. Муҳаммад Юсуф. Сайланма. “Шарқ”. 2005. – 288 б.
6. Норматов У. “Ижод сеҳри”. “Шарқ”. 2007. – 352 б.